



BOXTAR SATRAPLIGI TARIXINING BEHISTUN BITIKLARIDA YORITILISHI

(MILODDAN OLDINGI VI–IV ASRLAR)

Odiljon Xamidov,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,
TerDU dotsenti

Annotatsiya.

Boxtar - Turonning Amudaryo o'rta oqimida Hisor tizmasi va Hindikush oralig'ida joylashgan (hozirgi Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston va Janubi-sharqiy Turkmaniston) tarixiy-madaniy o'lka hisoblanadi. Ushbu tarixiy-madaniy o'lka mil. avv. VI-IV yuzyillarda Ahamoniyler saltanati tarkibiga kirgan bo'lib, Boxtar satrapligi tarixi haqidagi ma'lumotlar Ahamoniyler bitiklari hamda elam, bobil, oromiy, finikiy, misr, lidiya, kariya, likiya, yunon va lotin tillaridagi bir qancha yozma manbalarda uchraydi. Ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish Boxtar satrapligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, aholining turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumotlar olishga yordam beradi. Ushbu maqolada Boxtar satrapligining Behistun bitiklarida yoritilishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:

Eron Ahamoniyler davri, Turon, Boxtar satrapligi, Elam yozma manbalari, Persepol istehkom arxivi, Persepol xazina arxivi.

Аннотация:

Бохтар являлась историко-культурной областью Средней Азии, располагавшаяся в среднем течении Амударьи между хребтами Гиссар и Гиндукуш (современная территория Южного Узбекистана, Южного Таджикистана, Северного Афганистана и Юго-восточного Туркменистана). Эта историко-культурная область в VI-IV веках до н.э. входила в состав империи Ахеменидов. История Бохтар сатрапии отражена в ряде письменных источников, таких как ахеменидские надписи, эламские, вавилонские, арамейские, финикийские, египетские, лидийские, карийские, ликийские, греческие и латинские. Их научный анализ поможет получить ценные сведения о политической, социально-экономической истории Бохтар сатрапии, образе жизни населения. В данной статье научно проанализировано освещение Бактрийской сатрапии в Бехистуна.

Ключевые слова:

Эпоха Ахеменидского Ирана, Туран, Бактрийская сатрапия, бехистуна, архив Персепольских укреплений, архив Персепольской казны.

Annotation.

Bakhtar (Bactria) is a historical and cultural region in Central Asia, located in the middle reaches of the Amudarya between the Hisar range and the Indian Kush (now Southern Uzbekistan, Southern Tajikistan, Northern Afghanistan, and Southeastern Turkmenistan). This historical and cultural region was part of the Achaemenid Empire in the 6-4th century BC. Information about the history of the Bactrian satrapy is found in Achaemenid inscriptions as well as in Elamite, Babylonian, Aramaic, Phoenician, Egyptian, Lydian, Carian, Lycian, Greek, and Latin languages. The scientific analysis of this type of source helps to obtain valuable information about the history of the political, and socio-economic of the Bakhtar satrapy, and the lifestyle of the population. It illuminates the scientific issues of the Bakhtar satrapy in the Behistun inscription.

Key words:

Achaemenid Iran, Turan, Bakhtar satrapy, Behistun inscription, Persepolis Fortification Archive, Persepolis Treasury Archive.

Kirish.

O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixining ahamoniy-larga qaramlik davri tarixi 200-yil – mil. old. 6-4-yuz-yilliklarni o'z ichiga olib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Turonning Boxtar, Farg'ona, Sug'd hududlarida vujudga kelgan milliy davlatchilik tizimi hamda shimoliy hududlarda ko'chmanchi sak va massaget qabilalar ittifoqi ahamoniylar bosqini natijasida qaramlik davrini o'z boshidan kechiradi. Turonning ahamoniylarga qaramlik davrida ushbu hududda Ahamoniylar Fors saltanati tarkibidagi bir necha satraplik va viloyatlar vujudga kelgan.

Mil. old. 6-4-yuzyilliklar siyosiy tarixini yoritishda Eron davlatining tashkil topishi, ahamoniylarning Turon mintaqasiga bosqini hamda qaramlik davrida Turon tarixi masalalariga alohida e'tibor berildi. Tadqiqot markazida albatta, Turon tarixi asosiy o'rin egalladi.

Turonning ahamoniylarga qaramlik davri jamiyati o'troq aholi va ko'chmanchilar ijtimoiy tuzilishi Avesta, qadimgi fors bitiklari, yunon-rim matnlari va arxeologik manbalar asosida rekonstruksiyasini amalga oshirish mumkin. Bu bo'yicha oldingi tadqiqotlar tajribasidan unumli foydalanishimiz lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi.

Eron Ahamoniylar davriga oid ma'lumotlar turli-tuman yozma manbalar va hujjatlarda keltirilgan. Bunga shoh bitiklari, tarixiy yilnomalar, qarorlar, shoh buyruqlari, satraplar farmonlari, aholining viloyat hokimlariga shikoyat xatlari, fors amaldorlarining rasmiy yozishmalari, aholi orasidagi yozishmalar, soliq yig'ish, mulkni boshqarish, qullarga egalik qilish bo'yicha yo'riqnoma, soliqlar to'lovi bo'yicha xabarnoma (kvitansiya) lar, harbiy majburiyatni o'taganlik hujjatlari, sud jarayoni bayonnomalari, nikoh shartnomalari, ijara shartnomalari, qarz tilxatlari, diniy va ilmiy traktatlar, adabiy asarlar va h.k¹. Ularda Ahamoniylar saltanatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, aholining turmush tarzi haqida ma'lumot olish mumkin bo'lib, bevosita Turonning mil. old. 6-4-yuzyilliklar tarixi bo'yicha yozma manbalar nihoyatda kam. Tadqiqotchi ko'p sonli manbalar orasidan Turon tarixiga oid ma'lumotlarni aniqlashi kerak. Shundan kelib chiqib, Turonning ahamoniylarga qaramlik davriga oid yozma manbalarni bir necha guruhga bo'lish mumkin. Bunda bizga Ahamoniylar saltanati tarixi manbalarini guruhlashtirish bo'yicha qilingan ishlar² tajribasi yordam beradi. Masalan, 2021-yilda chop etilgan "Ahamoniylar saltanati" tadqiqotida³ manbalar 1) Ahamoniylar bitiklari; 2) Elam tilidagi; 3) Bobil tilidagi; 4) Oromiy tilidagi; 5) Finikiya; 6) Misr; 7) Lidiya, Kariya va Likiya; 8) Yunon

1 Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. М.: Наука, 1980. С.5.

2 Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. М.: Наука, 1980; Дандамаев М.А. Ахеменидская империя: социально-административное устройство и культурные достижения. – СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2013.

3 *A Companion to the Achaemenid Persian Empire*, edited by Bruno Jacobs and Robert Rollinger, Vol. 1. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2021.

va lotin tilidagi kabi manbalarga bo'lingan. Shuningdek, italiyalik tadqiqotchi M.Ferrario ahamoniylar davri O'rta Osiyo tarixi manbalarini tasniflashtirgan bo'lib, ahamoniylar Bixtar satrapligi yozma va arxeologiya manbalarining yutuq va kamchiliklarini o'rgangan. Shuningdek, etnografik manbalarining o'rni ham ko'rsatilgan⁴. I.V.Pyankov tomonidan Turonning qadimgi davr tarixiga oid yozma manbalar tadqiq etilgan⁵.

Shundan kelib chiqib, biz Turonning ahamoniylarga qaramlik davriga oid yozma manbalarini quyidagilarga bo'lishimiz mumkin: 1) Avesta; 2) Qadimgi fors tilidagi manbalar (shoh bitiklari); 3) Elam tilidagi manbalar (Persepol arxivlari); 4) Akkad tilidagi manbalar; 5) Oromiy tilidagi manbalar; 6) Injil manbalari; 7) Yunon-rim manbalari va h.k.

Qadimgi fors bitiklarini o'rganish yevropaliklar tomonidan XVII asrdan boshlangan bo'lib, Pyetro della Valle, fransuz Jan Sharden, daniyalik Karsten Nibur, nemis Gerxard Tixsen, F. Myunter, Georg Grotefend, Genri Roulinson, Xristian Lassen, Ejen Byurnuf, Teodor Benfi, Jyul Oppert, Fridrix Shpigel, F. Yusti, X. Bartoleme, Gerbert Tolman, F. Vaysbax, A. Meye, E. Xersfeld, V. Xins, R. Kent, M. Mayrxofer, V. Brandenshtayn, J.D. Giyyemen, V.V. Struve, M.A. Dandamayev, V. Abayev, E.A. Grantovskiy, Ya. Xarmatta, R. Shmitt, O. Chunakova, O. Shervo tadqiqotlarida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz⁶.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar.

Ahamoniylar davriga oid fors mixxat yozuvlarida bitilgan rasmiy bitiklar hozirgi kunda 200 ga yaqin nusxada ma'lum bo'lib⁷, ular, asosan, yirik savdo yo'llari bo'yida, sulola vakillari qabrlari, saroy devorlari, ustunlar, shuningdek, saroy poydevorlaridagi taxtachalar shaklida aniqlangan. Bitiklar, asosan, Fors (Persepol, Pasargad, Naqshi Rostam), Elam (Suza) va Midiya (Behistun, Hamadon) hududlarida tarqalgan.

Ahamoniylar shoh bitiklari, odatda, uch – qadimgi fors, elam va bobil tillarida bitilgan bo'lib, ular ko'p hollarda uch tilli hujjat shaklini tashkil etadilar. Satraplik⁸ tizimining tarixini o'rganishda ushbu bitiklar tengsiz manba sanaladilar⁹. Ularda sanalar, ma'muriy chegaralar, siyosiy birliklar haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Ushbu yozuvlar tarixiy voqealar bo'lib o'tgan hududlar, shuningdek, sanalarini aniqlash uchun alohida ahamiyatga ega¹⁰. Shu bilan birga, qadimgi fors yozuvining paydo bo'lgan zamon haqida mutaxassislar o'rtasida turlicha fikrlar bo'lib, mazkur masala hanuz to'liq hal etilgani yo'q¹¹. Qadimgi fors mixxat yozuvining eng ilk va mukammal namunalaridan biri Behistun bitiklaridir¹². Ular o'z mazmuni, hajmi va qo'lingan tillar soni bilan ahamoniylar davri rasmiy mafkurasi va ma'muriy tarkibini o'rganishda alohida manbaviy ahamiyat kasb etadilar.

Ushbu bitiklar orasida eng eskilari Birinchi Doryush, eng so'nggilari esa Uchinchi Artakserks¹³ davriga to'g'ri keladi. Manba sifatida quyidagi asosiy bitiklar alohida ahamiyatga ega: Behistun bitiklari – DB¹⁴ (beshta ustunda joylashgan, jami 515 qator: 96, 98, 92, 92, 36 qatordan);

4 Ferrario M. et al. Uno, nessuno, centomila. L'Asia centrale achemenide e le sue fonti: alcune note di merito e di metodo. Parte 2 // The Ancient History Bulletin. – 2021. – V. 35. – №. 1-2. – P. 1-35.

5 Пьянков И.В. Источники и литература // История таджикского народа. Душанбе, 1998. Т. I. С. 7-44, 563-585.

6 Бехистунская надпись Дария I / Пер. М. А. Дандамаева // История Древнего Востока: Тексты и документы. Раздел 111, 8: Бехистунская надпись Дария I. М., 2002. С. 389—397; Меликов Р.С. Древнеперсидские надписи. Транслитерация, перевод, глоссарий. Баку, 2013; Соколов С.Н. Древнеперсидский язык // Основы иранского языкознания. Древнеиранские языки. М., 1979. С. 234-272; Kent, R.G. (19532). *Old Persian: Grammar, Texts, Lexicon*. New Haven, CT: American Oriental Society, 1953; Kent, Roland G. *Old Persian: Grammar, Texts, Lexicon*. 2nd ed. [1st ed. 1953]. New Haven, CT: American Oriental Society. 1961.

7 Персидская держава. С. 231 – 250; М. А. Дандамаев. Историография истории древнего Ирана // Историография истории древнего Востока: Иран, Средняя Азия, Индия, Китай. Санкт-Петербург. 2002. С. 21; Ахеменидская империя: социально-административное устройство и культурные достижения. С. 11 – 14.

8 Сатраплик (қадимги форсчада dahyāva, оромий тилида dahyauš, бобил тилида māṭāti) — Ахамонийлар салтанатининг маъмурий-худудий бирлиги; турли даврларда 20 тадан 30 тагача сатрапликлар бўлган.

9 A.V. Rossi. The Inscriptions of the Achaemenids // A Companion to the Achaemenid Persian Empire. Vol. 1. Hoboken. 2021. P. 75 – 85.

10 Ю.С. Кухарчик. География Центральной Азии в древнеиранской письменной традиции // Исторические и психолого-педагогические науки: сборник научных статей. Минск. 2022.

11 И.М. Оранский. Несколько замечаний к вопросу о времени введения древнеперсидской клинописи // Журнал «Вестник древней истории». № 2(96). 1966. С. 107 – 116.

12 Ю.С. Кухарчик. Особенности древнеперсидских царских надписей как исторических источников по истории Центральной Азии // Исторические и психолого-педагогические науки: сборник научных статей. Минск. 2021. С. 253.

13 Учинчи Артаксеркс (милоддан олдинги 338 йили ўлган) – милоддан олдинги 359 – 338 йиллари ҳукмронлик қилган ахамоний ҳукмдор.

14 Қадимги форс битикларига нисбатан Р. Кент томонидан жорий этилган халқаро қисқартмалар (сиглалар) тизими қўлланилади. Ушбу қисқартмалар, одатда, уч қисмдан иборат бўлади. Биринчи ҳарф битикни ёзишга фармон берган подшоҳ, иккинчи ҳарф битик топишган жой номининг бош ҳарфидан олинади. Агар битик бир жойда жойлашган бир нечта ёзувдан иборат бўлса, уларни фарқлаш учун учинчи ҳарф (ёки ракам) ишлатилади. Шунга кўра, DB – Бехистун битиклари, DPe – Биринчи Дорйушнинг Персепўлдаги (P) битиклари, DNa – Биринчи Дорйушнинг Нақш-и Рустамдаги (N) қабр ёзувлари, DSe, DSm, DSf – Биринчи Дорйушнинг Сузадаги (S) битиклари, XPh – Биринчи Ксеркснинг Персеполдаги битикларини англатади.

Naqshi Rostam bitiklari – DN (120 qator);

Qurilish bitigi – DSf (58 qator);

Suzadagi Doryush bitigi – DS (52 qator);

Birinchi Kserks¹ning “devlarga qarshi” bitigi – XPh (60 qator)².

Ushbu bitiklarda Ahamoniylar saltanati tarkibidagi bir qator viloyat va xalqlar nomlari tilga olinadi. Jumladan, Turon va unga tutash hududlardan quyidagilar zikr etiladi: Parθava (Parfiya), Zra(n)ka (Drangiana), Haraiva (Aryeyya), Margu (Margʻiyona), Uvārazmiy (Xorazm), Bāxtriš (Boxtar), Suguda (Sugʻd) hamda sak xalqlarining ikki asosiy guruhi: saka haumavarga (haoma ichuvchi saklar), saka tigraxauda (oʻtkir uchli qalpoq kiyuvchi saklar). Bāxtriš satrapligi Behistun (DB I, 16; DB III, 13), Birinchi Doryushning Persepol (DPe, 16), Naqshi Rostam (DNa, 23), Suza (DSm, 9; DSf, 36) hamda Kserks (XPh, 21) bitiklarida keltirilgan³.

Behistun bitiklarida Boxtar “Baxtri-” shaklida yozilgan boʻlib, mazkur shakl tovush jihatdan avesta va Midiya tillaridagi atamalarga yaqinligi bilan farqlanadi. Bu holat fors, midiya va avesta tillari oʻrtasidagi tarixiy tilshunoslik bogʻliqliklarini oʻrganishda alohida yondashish ahamiyatiga ega⁴. Ahamoniy shohlari bitiklariga oid umumiy birlashtirilgan va yangilangan toʻplamlar chop etilgan⁵. Ilgari nashr etilgan koʻpgina toʻplamlar faqat bir tildagi bitiklarni qamrab olganlar⁶. Masalan, R. Shmitt tomonidan tayyorlangan nashr faqat qadimgi fors va nemis tillaridagi matnlarni oʻz ichiga oladi. Oʻz navbatida, P. Lekoʻk nashrida esa uch tildagi (fors, elam, babil) barcha bitiklar toʻplam sifatida jamlangan⁷. Ahamiyatli manbalardan biri boʻlgan Behistun bitiklari – ahamoniylar tarixi va maʼmuriy tuzilishiga oid eng muhim rasmiy shoh hujjatlaridandir⁸. Shuningdek, Kserksning “devlarga qarshi matni” ham sharqiy satrapliklar mafkurasi va dinini oʻrganishda muhim manba sanaladi. Ushbu bitik qadimgi fors tilida 3, qadimgi elam va babil tillarida 1 nusxadan aniqlangan. Bitiklar 1935-yili Persepoʻl, 1963-

yili Pasargadda topilgan⁹. Matnda Ahuramazdaga hamd, Kserksning ajdodlari va uning hukmronligidagi 13 mamlakat zikr etilgan. Keyin esa, boʻysundirilgan xalqlar orasida “devlarga eʼtiqod qiluvchilar” borligi tilga olinib, ularga bunday eʼtiqod man qilingani bayon qilinadi. L. Llevellin Joʻns¹⁰ taʼkidlaganidek, qadimgi fors bitiklari orqali biz ahamoniylarning oʻzlari tomonidan yozilgan rasmiy tarixni oʻqish imkoniga egamiz¹¹.

Bundan tashqari, koʻplab etnonimlar tarixda birinchi marta aynan qadimgi fors bitiklarida qayd etilgan. Xususan, “saka” atamasi birinchi marta Birinchi Doryush tomonidan egallangan xalqlar roʻyxatida keladi. U umumiy hisobda 16-marta tilga olingan¹².

Sakalar koʻp hollarda egallangan hududlar roʻyxatlarida keltirilgan boʻlib, Birinchi Doryushning Behistun (DB I 14 – 17), Persepoʻl (DPe 10 – 18), Naqshi Rostam (DNa 22 – 30), Suza (DSe 21 – 30, DSm 7 – 1) va Birinchi Kserksning Persepoʻl (XPh 19 – 28) bitiklarida uchraydi.

Xulosa va takliflar.

Qadimgi fors bitiklari matnlari orqali Turonning miloddan oldingi 6 – 4-yuzyilliklari tarixiga oid qator muhim maʼlumotlarni aniqlash mumkin. Biroq ularni toʻliq oʻrganish va ilmiy tadqiqotlarda samarali foydalanish uchun zarur til va manbashunoslik bilimlari hozirgi kunda yurtimizda yetarlicha shakllangan emas. Ayniqsa, qadimgi fors tili va mixxat yozuvini oʻqiydigan mutaxassislar yoʻqligi, shuningdek, ushbu yozma manbalarning ingliz yoki rus tillaridan oʻzbek tiliga toʻliq tarjimalari mavjud emasligi oʻta muhim muammolardan biridir. Faqat ayrim bitiklar, oʻshanda ham rus tilidagi toʻplamlar orqali, qisman oʻzbek tiliga tarjima qilingan, xolos.

1 Birinchi Kserks (miloddan oldingi 518 – 465 yillar) – miloddan oldingi 486 – 465 yillari hukmronlik qilgan ahamoniy hukmdor.

2 Ю.С. Кухарчик. Бактрия по данным древнеперсидских царских надписей // Исторические и психолого-педагогические науки: сборник научных статей. Минск. 2020. С. 347 – 355; Особенности древнеперсидских царских надписей как исторических источников по истории Центральной Азии. 2021. С. 254.

3 Особенности древнеперсидских царских надписей как исторических источников по истории Центральной Азии. С. 256. Таблица 1.

4 R.G. Kent. Old Persian: Grammar, Texts, Lexicon. New Haven. 1961; И.В. Пьянков. Бактрия в античной традиции (Общие данные о стране: название и территория). Душанбе. 1982. С. 8.

5 R. Schmitt. Die altpersischen Inschriften der Achaimeniden. Wiesbaden. 2009.

6 Old Persian: Grammar, Texts, Lexicon. 1961.

7 P. Lecoq. Les inscriptions de la Perse achemenide. Paris. 1997.

8 Историография истории древнего Ирана. С. 21 – 22.

9 G. Cameron. The “Daiva Inscription” of Xerxes: in Elamite // WO. 1959. Bd. II. Ht. 5/6.

10 Лўйд Левеллин Жўнс (Lloyd Llewellyn-Jones) — Кардифф университетининг Қадимги тарих бўйича профессори, қадимги Эрон ва Турон, айниқса, Аҳамонийлар салтанати даври тарихи ва маданияти бўйича етакчи мутахассислардан бири; унинг илмий ишлари билан беvosита академик саҳифасида танишингиз мумкин: <https://cardiff.academia.edu/LloydLlewellynJones/Books>

11 L. Llewellyn-Jones. Persians. The Age of the Great Kings. New York. 2022.

12 Ю.С. Кухарчик. Среднеазиатские кочевники в ахеменидском Иране // Беларусь и культурное наследие древности и средневековья: материалы международной научной конференции, приуроченной к годовщине подписания Пакта Рериха, Минск, 15 апр. 2021 г. Минск. 2021. С. 106 – 117.